

References:

1. Higher Education Consumer Choice, J. Hemsley-Brown, I. Oplatka, 2016
2. Brands and Branding: Research Findings and Future Priorities Keller and Lehmann, 2006
3. Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity, K.Keller
4. Aaker (1991: 270)
5. Impact of Country-of-origin Image on Brand Equity: A Study on Durable Products in India, Rajeev Kumar Panda, Siddharth Misra, 2014
6. Associations between majors of graduating seniors and average SATs of incoming students within higher education in the U.S, Laura H., Gunn Enriqueter Horst, Talar Markossian, German Molin
7. The continuing use and misuse of sat scores, D.W. Grissmer
8. In Contribution to the Quality Assessment in Higher Education: The Case Study of the Faculty of Technology, Tlemcen, Algeria, Abdellatif Megnounif*, Asmae Kherbouche, Nadia Chermitti
9. Determinants of undergraduate business student satisfaction, D. W. Letcher, J. S. Neves, 2010
10. Implementation of student satisfaction index model in higher education institutions, Leyla Temizer a, Ali Turkyilmaz Procedia - Social and Behavioral Sciences 46 (2012) 3802 – 3806 1877-0428, 2012
11. Understanding University Brand Loyalty: The Mediating Role of Attitudes towards the Department and University, Irem Eren Erdogan, Sinem Ergun, August 2016, Procedia - Social and Behavioral Sciences 229:141-150
12. Students' Expectation, Perception and Satisfaction towards the Management Educational Institutions, Dr. Sudharani.D. Ravindran and Mrs. Kalpana M./ Procedia Economics and Finance 2 (2012) 401 – 410
13. Determinants of undergraduate business student satisfaction, D. W. Letcher, J. S. Neves, 2010
14. Processes of non-identification: Business school brands and academic faculty, Sanne Frandsen, Tony Huzzard, Scandinavian Journal of Management, Volume 37, Issue 3, September 2021, 101157
15. Issues of Universities' Governance in Pakistan Akhtar, M. M. S., & Kalsoom, 2012, Journal of Elementary Education, 22(2), 81-94.
16. WIPO (2018) "Trademark"
17. Internationalization Remodeled: Definition, Approaches, and Rationales, Knight J.
18. What Are the Advantages & Disadvantages of Economic Competition, Devra Gartenstein, bizfluent.com/info-8455003, Updated November 21, 2018
19. <https://www.stat.gov.az/>
20. <https://supporthere.org/page/higher-education-Uzbekistan> Internationalization of Higher Education: Analysis of Factors Influencing Foreign Students' Choice of Higher Education Institution, R. Roga, I. Lapina, P. Muursepp, Procedia - Social and Behavioral Sciences 213 (2015) 925 – 930.



KORPORATIV BOSHQARUVNI SAMARALI AMALGA OSHIRISH

Shermuhamedov Akmal Komiljonovich -
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Korporativ boshqaruv" kafedrasasi assistenti

https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss1/a16

Annotatsiya: Hozirgi kunda mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti faoliyat yuritishining zaruriy institutlari amaldagi qonunlarda o'z ifodasini topgan, shu bilan bir vaqtda yangi shakllangan korporativ tadbirkorlik tuzilmalarida boshqaruv samaradorligini ta'minlash raqobatni hamda mulkdorlar huquqini himoya qilish muammolarini hal etishda mavjud institutlar samaradorligi pastligi kuzatilmoqda.

Kalit so'zlar: samaradorlik, tadbirkorlik, birja, korporativ boshqaruv, moliyaviy mustahkamlik, korporatsiya.

ЭФФЕКТИВНОЕ ВНЕДРЕНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ

Шермухамедов Акмаль Камильджанович -
Ташкентский государственный экономический университет
Кафедра "Корпоративное управление"

Аннотация: В настоящее время необходимые институты рыночной экономики в нашей стране отражены в действующем законодательстве, а эффективность управления во вновь образованных корпоративных бизнес-структурах невысока в решении проблем конкуренции и защиты прав собственности.

Ключевые слова: эффективность, предпринимательство, фондовый рынок, корпоративное управление, финансовая устойчивость, корпорация.

EFFECTIVE IMPLEMENTATION OF CORPORATE GOVERNANCE

Shermukhamedov Akmal Kamiljanovich -
Tashkent State University of Economics
Department of "Corporate Governance"

Abstrakt: Currently, the necessary institutions of a market economy in our country are reflected in the current legislation, and the management efficiency in newly formed corporate business structures is low in solving the problems of competition and protection of property rights.

Key words: efficiency, entrepreneurship, stock market, corporate governance, financial stability, corporation.

Kirish. Korporativ boshqaruv munosabatlari sohasi ushbu yo'nalishdagi institutlar samaradorligini oshirishda katta imkoniyatga ega hisoblanadi. Har qanday davlatning iqtisodiyoti o'zaro aloqada faoliyat ko'rsatuvchi va shu bilan bir paytda bir-biri bilan raqobatlashuvchi ko'p sonli unsurlardan tarkib topgan ko'p pog'onali va qatlamli tizimni ifodalaydi, bu unsurlarning asosiysi tadbirkorlik hisoblanadi. U siz zamonaviy bozor iqtisodiyoti bir maromda va uzluksiz faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishi mumkin emas. Shularni inobatga olib ishida tadbirkorlik, uning Aksiyadorlik shaklining maqsadi va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarida samarali boshqarish tizimini tashkil etishda korporativ boshqaruvni takomillashtirish yo'llari, korporativ boshqaruv standartlarini kiritishda rag'batlantirish masalalarig aloha ae'tibor qaratis joiz.

Jumladan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy korxonalarini yanaa rivojlantirish dasturidagi vazifalardan kelib chiqqan holda aksiyadorlik jamiyatlariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish investitsiyalarni jalb etish, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish korporativ boshqaruv tizimini yanaa takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani o'rganish asosida aksiyadorlik jamiyatlarining yangi namunaviy tuzilmasi ishlab chiqildi. Shu tariqa zamonaviy korporativ boshqaruv tizimi talablarini inobatga olgan holda, Lavozim va kasblarning yangi kalssifikatori ishlab chiqildi va tasqiqlandi, unga bozor iqtisodiyoti talablariga mos kelaigan 566 ta yangi toifa kiritildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

N.P. Tereshina va A.V. Sorokinalarning "Korporativ boshqarush" o'quv qo'llanmasida "Aksiyadorlik jamiyatlarini mamlakat iqtisodiyotida, moliyaviy manbalarining taqsimlanishi va iqtisodiyotda bo'sh mablag'lardan samarali foydalanishi orqali yuzaga keladi[1]" deya ta'kidlagan.

Bob Tricker o'zining "Korporativ boshqaruv, tamoyillar, siyosat va amaliyot" asarida "Aksidorlik jamiyatlarida xavf va inqirozni boshqarish o'rtasidagi farqlarni keltirib o'tgan" [2].

N. Ansoff ta'rifi ga ko'ra, korporatsiya bu – tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan, yuridik maqomi, ishbilarmonlik mulki va yollanib ishlaydigan professional boshqaruvchilarning yuqori bo'g'inida boshqaruv funksiyalarini ko'zda tutadigan shaklidir[3].

D. M. Rozenbergning hisoblashicha, korporatsiya bu – o'z oldiga belgilangan maqsadlarni qo'ygan, jamiyat manfaatlari yo'lida xizmat qiladigan,

belgilangan huquqlarga ega, doimiy asosda faoliyat ko'rsatadigan va cheklangan mas'uliyatga ega yuridik shaxs hisoblangan tashkilotdir[4].

Aynan korporatsiyalar sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy kuchining, milliy iqtisodiyotlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligining asosini tashkil qilishini tan olish lozim. Bu haqda quyidagi dalil ham guvohlik beradi: garchi yirik korporatsiyalar zimmasiga tadbirkorlik tuzilmalari tarkibida kichik ulush to'g'ri kelsada, aynan ular milliy iqtisodiyotning yuzi va sifatini, uning jahon xo'jaligidagi raqobatbardoshligini belgilab beradi.

Masalan, AQShda korporatsiyalar sanoat firmalari umumiy sonining atigi 18 foizini tashkil etsada, biroq bunda sanoat mahsulotlari hajmining 90 foizini ishlab chiqaradi. Shu sababli, Dj. K. Gelbreyt va boshqa bir qator tadqiqotchilar yirik korporativ tuzilmalarni sanoat tizimining asosi sifatida ko'rib chiqadilar[5].

M.G'. Umarxodjaeva, A.R. Ismailovlar ham-muallifligida "Korporativ boshqaruv" o'quv qo'llanmasida "Korporativ boshqaruvda xalqaro tamoyillari, korporativ nazoratning shakllari va modellari, korporativ boshqaruvning Ingliz-Amerika modellari orqali boshqaruvning samaradorligini bir necha marta oshirish imkoniyati yaratiladi"[6] deya keltirib o'tgan.

Ta'kidlash joizki, korporatsiyalarning shakllanishi va rivojlanishi milliy iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyasi hisoblanadi, chunki yirik korporativ tizimlar rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining ham, butun jahon xo'jaligining ham asosini tashkil qiladi. Ular ishlab chiqarishni makroiqtisodiy tartibga solishni optimallashtiradi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash strategiyasini shakllantirish va amalga oshirishda davlatning hamkori sifatida ishtirok etadi.

Korporatsiyalarning u yoki bu mamlakat iqtisodiy tizimidagi o'rni va roli ularning umumiy takror ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyati, uning resurslar bilan ta'minlanganligi bilan belgilanadi. Yirik tadbirkorlik ishlab chiqarishni yuqori darajada umumlashtirish, kapitalni birlashtirish va markazlashtirishga asoslanadi. U sanoat ishlab chiqarish salohiyatining negizini tashkil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqot davomida maqolada induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, iqtisodiy-matematik modellashtirish, jumladan korrelyatsiya va regressiya, qiyoslash va guruhlash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan foydalanilgan. Tadqiqotimizda, ilmiy-tadqiqot metodologiyasi bo'lib dialektika uslubi hisoblanadi va tadqiqot jarayonida tajriba-eksperimental, tanlab kuzatish, taqqoslash, ekspertlar bahosi, qiyosiy tahlil, analitik tahlil yo'nalishlari orqali muammoni chuqurroq o'rganishga xarakat qilingan. Muammoning yechimiga olib boruvchi asosiy yo'nalishlar

belgilangan. Tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekistonning asiyadorlik jamiyatlari misol qilib olingan.

Tahlil va natijalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari ishtirokida tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 426,5 mlrd so'mni tashkil qildi. Davlat xaridlari tizimlarida o'tkazilgan elektron savdolar natijasida byudjet va korporativ buyurtmachilarining qariyb 26,8 mlrd so'mlik mablag'lari tejaldi. Ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida onlayn auksion orqali 2 272 ta avtoraqamlar sotildi, sotilgan davlat raqam belgilarining umumiy summasi 4,1 mlrd so'mni tashkil qildi. Raqobatli savdolar natijasida bitimlarning 2,9% birinchi toifadagi avtoraqamlarga, 8,8% ikkinchi, 9,2% uchinchi, 12,9% to'rtinchi, 20,0% beshinchi va 46,0% oltinchi toifa avtoraqamlarga tegishlidir[7].

Birja savdolari. Ko'rib chiqilayotgan davrda ochiq birja savdolari orqali jami 1 027,6 mlrd so'mlik tovar resurslari sotildi. 2021 yil avgust oyi ma'lumotlariga ko'ra sotuvchi korxonalar mahsulotlarni tasdiqlangan jadvallarga rioya qilgan holda birja savdolariga qo'yishdi, shu jumladan:

Paxta yog'i. O'tgan haftada birjaning paxta yog'i bozorida narxlarning pasayish holatlari kuzatildi. Xususan, 29-30 avgust kunlari birja savdolari orqali 1 462,0 tonna paxta yog'i sotilgan. O'tgan uch kun mobaynida barcha navli paxta yog'ining kunlik o'rtacha narxlari mahsulotning bir tonnasi uchun 17 777,0 ming so'mdan 17574,99 ming so'mgacha, ya'ni 1,16% ga pasaydi[8].

Paxta yog'ining birjadagi narxlarini pasayishiga mos tarzda texnik paxta chigiti va paxta yog'ining boshlang'ich narxlarini sotuvchi-korxonalar tomonidan pasaytirilganligi o'z ijobiy ta'sirini o'tkazdi. Xususan, ko'rib chiqilayotgan davrda paxta yog'ining boshlang'ich narxi mahsulotning bir tonnasi uchun o'rtacha 15 375,6 ming so'mdan 14 158,6 ming so'mgacha, ya'ni 8% ga pasaygan.

Shakar ichki talab o'sishda davom etmoqda. Bu esa narxning sezilmas darajada ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Hafta davomida birja savdolariga 9 300,0 tonna shakar qo'yildi va ushbu hajmning barchasi, ya'ni 100% sotilgan. Ko'rib chiqilayotgan davrda shakarining barcha kategoriyasi bo'yicha shakllangan kunlik o'rtacha narxlar mahsulotning bir tonnasi uchun 7 253,4 ming so'mdan 7 517,7 ming so'mgacha, ya'ni 3,6% ga ko'tarildi. O'tkazilgan birja savdolari natijasida mahalliy shakarining 3-kategoriyasi bo'yicha shakllangan o'rtacha haftalik narxi mahsulotni bir tonnasi uchun 7 583,8 ming so'mni tashkil etdi[9].

Birjaning sement bozorida ichki talabning o'sishiga qaramasdan barqarorlik saqlanmoqda. Xususan, sement bo'yicha o'tkazilgan birja savdolarida ishtirok etgan xaridorlarning o'rtacha kunlik soni avvalgi haftaga nisbatan 2,4% ga o'sib, 714 ta ishtirokchini tashkil qildi. O'tgan haftada birja savdolariga 161 026,0 tonna sement qo'yildi va ulardan

140 970,0 tonnasi, ya'ni 87,5% sotildi. O'rtacha kunlik sotuv hajmlari 46,9 ming tonnani tashkil qildi. Ko'rib chiqilayotgan davrda sementning barcha kategoriyasi bo'yicha shakllangan kunlik o'rtacha narxlar mahsulotning bir tonnasi uchun 567,2 ming so'mdan 571,9 ming so'mgacha, ya'ni atigi 0,8% ga o'sdi.

O'tgan haftada birjada avtomobil benzining narxi biroz pasaydi. Narxlarning pasayishiga sotuvchi-korxonalar tomonidan boshlang'ich narxlarning pasaytirilganligi o'z ijobiy ta'sirini o'tkazdi. Xususan, ko'rib chiqilayotgan davrda sotuvchi-korxonalar AI-80 markali avtomobil benzining boshlang'ich narxlarini mahsulotning bir tonnasi uchun o'rtacha 6 677,7 ming so'mdan 6 641,7 ming so'mgacha pasaytirishdi. Shu munosabat bilan, AI-80 markali avtomobil benzinning o'rtacha kunlik narxi ham mos tarzda 6 691,9 ming so'mdan 6 683,5 ming so'mgacha pasaydi. Ko'rib chiqilayotgan davrda AI-80 rusumli avtomobil benzinning o'rtacha haftalik kotirovkasi 6 676,4 ming so'mni, AI-91 – 7 692,9 ming so'mni tashkil etdi[10].

Eslatib o'tamiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 apreldagi PQ-4664-son qaroriga muvofiq «O'zbekneftgaz» AJ tasarufidagi Buxoro neftni qayta ishlash zavodi tomonidan birja savdolariga qo'yiladigan avtomobil benzining boshlang'ich narxlari, jahon birjalardagi Brent neftining kotirovkalaridan kelib chiqib shakllanadi[11].

Tadbirkorlik iqtisodiy faoliyat sub'yektlarining ishlab chiqarishni tashkil qilishga yo'naltirilgan mustaqilligi, faolligi va tashabbuskorligiga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy holatni ifodalaydi. Har qanday tadbirkorlik faoliyati, jumladan, Aksiyadorlik jamiyatlari (korporatsiyalar)ning asosiy maqsadi bu – tadbirkorlik daromadi yoki foyda olish uchun moddiy yoki boshqa ne'matlar ishlab chiqarish va bozorda iste'molchilar orasida taqsimlashdir. Bundan tashqari, shu bilan bir paytda tadbirkorlik yangi ish o'rinlari yaratish, davlat va mahalliy byudjetlarni soliqlar to'lash yo'li bilan to'ldirish kabi muhim ijtimoiy funksiyalarni bajaradi.

"O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi" AJ aktivlari 2021-yil 3-chorakda 2020-yilning shu davriga nisbatan 53,89 foizga o'sib, 3,37 trillion so'mni tashkil qildi. Kompaniya daromadi 209,15 mlrd so'mni tashkil etdi, bu 20-yilning 3-chorakiga nisbatan 61,08% ga ko'pdir. Sof foyda 3-chorakdagi 65,42 mlrd so'mdan hozirgi 112,51 mlrd so'mga (+ 71,97%) o'sdi. Kompaniyaning sof foyda marjasi 2020-yil 3-chorakdagi 50,38 foizdan 2021 yilning mos davrida 53,79 foizgacha oshdi. Kompaniyaning yalpi marjasi ham 87,72 foizdan 90,40 foizga oshdi[12].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, korporativ tadbirkorlik uzoq shakllanish davrini bosib o'tgan va dunyo mamlakatlari ichida ushbu faoliyatning samarali shakli sifatida tan olingan. Avstriyalik sotsio-


log va iqtisodchi Y. Shumpeter o'zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» kitobida “tadbirkor iqtisodiy omil sifatida ahamiyati bo'yicha kapital, mehnat va yer bilan bir xil darajada turadi”[13], deb ta'kidlagan.

Korporativ boshqaruv sohasidagi O'zbekiston olimlari va mutaxassislarining ta'kidlashicha, mamlakatda korporativ munosabatlarning rivojlanish jarayoni umuman olganda bozor munosabatlariga o'tish yo'llari va ularning iqtisodiy rivojlanish xususiyatiga ta'siri bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq jihatlarga tobora ega bo'lib bormoqda. Aynan iqtisodiyot tarmoqlarida olib borilgan islohotlar jarayoni ko'p jihatdan davlatning qonunchilik tizimi xususiyatlari, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan holda Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv modelini shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'lanadi. Shulardan kelib chiqib ishida milliy korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va uning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi tamoyillarga mos vazifalari asoslangan (1-rasm).

Korporativ boshqarish tamoyillari talablarini to'liq bajarish Aksiyadorlik jamiyatiga eng kam sarf-xarajat bilan katta miqdorda uzoqqa mo'ljallangan investisiyalar jalb etishni, yangi innovatsion tex-

nologiyalarni faol joriy etishni ta'minlaydi. Shuni inobatga olganda korporativ boshqaruv organlari Aksiyadorlar huquqlarini himoyalash, ularga bir xil munosabatda bo'lish, manfaatdor tomonlar hamkorligini rag'batlantirish, axborotlarni belgilangan vaqtlarda to'liq ochib berish, korxonalar menejmentini nazorat qilishni ta'minlash bo'yicha vazifalarni hal etishning samarali mexanizmlarini qo'llashni talab etadi. Hozirgi paytda respublikamizda korporativ boshqaruv modelining takomillashtirish va uni samarali yuritishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatayotgan omillar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- mamlakatdagi barqaror makroiqtisodiy vaziyat va iqtisodiy siyosat;
- jamiyatda aktsiyalarga egalik qilishning muayyan tuzilmasi;
- moliyalashtirish manbalarining o'zaro nisbati
- qonunchilik tizimi va huquqiy madaniyatning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy xususiyatlari;
- yuzaga kelgan ishbilarmonlik munosabatlari amaliyoti;
- davlatning iqtisodiyotga aralashuv darajasi va uning huquqiy tizimni tartibga solishdagi roli.



1-rasm. Korporativ boshqaruv tamoyillari va uning samarali tizimiga o'tish vazifalari[14]

Korxonalar moliyaviy holatini umumiy baholashdan keyingisi moliyaviy tahlil bosqichi bo'lib, korxonalarining moliyaviy mustahkamligi tahlili hisoblanadi. Moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilishdan oldin moliyaviy mustahkamlikning mazmuni to'g'risida kelishib olishimiz lozim.

Iqtisodiy adabiyotda moliyaviy mustahkamlikka va balans likvidligiga bir xil ta'rif berishadi va aniqlanayotgan ko'rsatkichni yoki moliyaviy mustahkamlik yoki balans likvidligi, ya'ni korxonalarining olingan qarzlarni qaytarib berish qobiliyatiga egalik deb tushuniladi. Moliyaviy mustahkamlik va balans likvidligi – bu o'z mazmuniga ega bo'lgan ikki xil moliyaviy ko'rsatkichlar bo'lib, korxonalar moliyaviy faoliyatini har xil nuqtai nazardan ifodalaydi.

Davlat ulushiga ega bo'lgan Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati monitoringida korporativ boshqaruvning zamonaviy xalqaro standartlaridan foydalanish istiqbollari amalga oshirishda korporativ boshqaruv tamoyillari va uning samarali tizimiga o'tish vazifalari muhim o'rinni egallab, uni biz quyidagi 1- rasmida izohlashga harakat qilamiz.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati monitoringida korporativ boshqaruvning zamonaviy xalqaro standartlaridan foydalanishda mustahkamlik ko'rsatkichi kompleks sifatidagi ko'rsatkich bo'lib, u:

- Aksiyadorlik jamiyatlari murakkab bozor munosabatlari davrida ishlab chiqarishni saqlanib qolish imkoniyatini;
- Aksiyadorlik jamiyatlari mablag'laridan erkin ravishda foydalanish imkoniyati borligini;
- ishlab chiqarishni to'xtatmasdan, mahsulot sotish imkoniyati borligini;
- Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining umumiy mustahkamligini;
- Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga to'g'ri boshqaruvlik qilinayotganligini;
- Aksiyadorlik jamiyatlarida mavjud moliyaviy resurslarni bozor munosabatlarining talablariga javob berishligini;
- Aksiyadorlik jamiyatlarining zaxira va harajatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qoplovchi manbalar borligi darajasini ko'rsatadi.

Demak, iqtisodiy mustahkamlik Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan aniqlanadi. Unga ham ichki, ham tashqi omillar, shart-sharoitlar ta'sir etadi.

Ichki omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Aksiyadorlik jamiyatlarida ishlab chiqarishning barqarorligi;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish;
- ishlab chiqarishni boshqarish;
- korxonalar nizam fondining hajmi;
- Aksiyadorlik jamiyatlari harajat va daromadlarining nisbati;
- o'zlik mablag'larining manbalari va davlat ulushiga ega bo'lgan Aksiyadorlik jamiyatlari maj-

burialarining nisbati;

- korxonalar aylanma mablag'lari tarkibi.
- "O'zbekiston respublikasi tovar xom-ashyo birjasi" AJ o'z faoliyatida boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqalarda bo'lar ekan, korxonalar moliyaviy mustahkamligiga tashqi omillar ham ta'sir etadi, ular tarkibida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:
 - Aksiyadorlik jamiyatlarining tovarlar bozoridagi holati;
 - Aksiyadorlik jamiyatlarining eksport va import aloqalari;
 - Aksiyadorlik jamiyatlarining boshqa korxonalar, ta'minlovchi va iste'molchi korxonalar bilan aloqalarda ishgah oid aktivligi;
 - bank organlari, debitor va kreditorlar bilan aloqalar;
 - respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat, soliq, narx-navo va moliya, bank siyosati, texnika, texnologiya siyosati.

Bu Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy mustahkamlikning mazmuni shundan iboratki, moliyaviy mustahkamlikni o'lchash, baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimini chegaralab olish lozim. Lekin ma'lumki, davlat ulushiga ega bo'lgan Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy resurslarining shakllanish, taqsimlanish va foydalanish samaradorligi ularning umuman moliyaviy holati bo'lsa, moliyaviy mustahkamligi korxonalar faoliyatini faqat bir shaklini, yo'nalishini ifodalaydi.

A.D. Sheremet, R.S. Sayfulinlarning fikricha moliyaviy mustahkamlik va to'lashga qodirlik bir mazmunga ega bo'lib, to'lashga qodirlik moliyaviy mustahkamlikning tashqari ko'rinishini ifodalaydi[15].

Mening fikrimcha, davlat ulushiga ega bo'lgan Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ko'rsatkichlarni, shu jumladan, moliyaviy mustahkamlik bo'yicha ham kriteriyalar emas, optimal yoki me'yoriy darajalari tasdiqlanishi kerak.

Davlat ulushiga ega bo'lgan Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy mustahkamlikni har xil shakllarini, har tomonlama tahlil etish uchun ikki guruh ko'rsatkichlardan foydalanish lozim, ya'ni:

1. Asosiy ko'rsatkichlar;
2. Qo'shimcha ko'rsatkichlar.

Endi bevosita davlat ulushiga ega bo'lgan Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilish, uni miqdoriy ifodalash to'g'risida so'z yuritsak:

Asosiy ko'rsatkichlar. Ma'lumki, davlat ulushiga ega bo'lgan Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy mustahkamlik zaxira va harajatlari, ularni qoplovchi manbalar o'rtasidagi nisbat bilan aniqlanadi. Bu manbalar uch xil bo'lishi mumkin.

1. O'zlik manbalari.

Aksiyadorlik jamiyatlari moddiy mablag'larni qoplash uchun umumiy o'zlik manbalarining bir qis-

midan foydalanadi. Qolgan qismidan uzoq muddatli aktivlarni qoplash uchun foydalaniladi. Demak, korxonada umumiy o'zlik manbalaridan uzoq muddatli aktivlarning qiymatini ayrib tashlashi lozim,

2. O'zlik manbalari va korxonaning uzoq muddatli majburiyatlari. Demak, o'zlik manbalariga korxonaning uzoq, muddatli majburiyatlari qo'shiladi.

3. Manbalarning hammasi, ya'ni o'zlik manbalar va korxonaning uzoq-qisqa muddatli majburiyatlari.

Xulosa va takliflar. Ko'rinib turibdiki, mamlakat iqtisodiyotidagi Aksiyadorlik jamiyatlari uchun samarali korporativ boshqaruv tizimiga o'tish muammolarini ijobiy hal qilish uchun tashkiliy-iqtisodiy sharoitlar yetarlidir. Biroq, agar XX asrning 90-yillarida Aksiyadorlik jamiyatlarini shakllanishining nazariy va amaliy masalalari ko'proq ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, hozirgi paytda integratsion o'zaro aloqalarning oqilona yo'llarini izlab topish, strategik rejalashtirish va boshqarish, yirik integratsiyalashgan ishlab chiqarish tuzilmalarini optimal tarkibini yaratish, Aksiyadorlar huquqini himoyalash korporativ boshqaruv va nazoratning eng dolzarb muammolari qatoriga kiradi. Aksiyadorlar 2021-yilda xayriya xarajatlari chegarasini qayta ko'rib chiqadilar.

Xulosa qilib aytganda maxalliy va chet ellik investorlarning O'zbekiston fond bozoriga bo'lgan ishonchi va qiziqishlari ortgan va aksionerlik jamiyatlarining daromadi xam sezilarli darajada ko'payganligini aytishimiz mumkin.

Hisob-kitoblar natijalari shuni ko'rsatadiki, korporativ boshqarish tizimi faoliyati natijadorligi darajasini kamaytirishga, avvalo, biznes istiqbollari bilan ma'muriy-boshqaruv va biznesni ko'ra bilishlik yo'nalishlari ta'sir ko'rsatgan.

Aksiyadorlik jamiyati korporativ boshqarish tizimi faoliyati natijadorligining 3 ta yo'nalishining har biri bo'yicha tadbirlar holatini tahlil qilish natijalari asosida korporativ boshqarish tizimi faoliyati natijadorligining zarur darajasini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Tashqi va ichki muhitda yotadigan va korporatsiya va umuman korporativ boshqaruv tizimining ishlashiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan korporatsiyaning mavjud afzalliklari omillari bo'yicha o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimida korporativ raqobat ustunliklarini shakllantirish samaradorligini baholash natijalari tegishli strategiyalar shakllangan taqdirda korporativ ustunliklar darajasini oshirish zahiralari aniqlash imkonini berdi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Терешина Н.П., Сорокина А.В. *Корпоративное управление: Учебное пособие.* –М.: МГУПС (МИИТ), 2014. – 218 с.
2. Bob Tricker – *Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.*
3. Igor H. Ansoff “*The New Corporate Strategy*”, 1988). 20.02.2012. URL: <https://gtmarket.ru/library/basis/4155>
4. <https://www.researchgate.net/scientific-contributions/DM-Rosenberg-2126998205>
5. J.K. Galbraith “*Economics and the public purpose*” Houghton Mifflin company Boston <http://www.library.fu.ru/files/galbraith.pdf>
6. Umarxodjaeva M.G., Ismailov A.R. “*Korporativ boshqaruv-2*” O'quv qo'llanma. - TDIU, 2019. – 218 bet.
7. Muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida qayta ishlash yo'li orqali hisoblangan
8. [https://uzex.uz/ma'lumotlari asosida tuzildi](https://uzex.uz/ma'lumotlari-asosida-tuzildi)
9. [https://uzex.uz/ma'lumotlari asosida tuzildi](https://uzex.uz/ma'lumotlari-asosida-tuzildi)
10. [https://uzex.uz/ma'lumotlari asosida tuzildi](https://uzex.uz/ma'lumotlari-asosida-tuzildi)
11. <https://uzex.uz/uz-Cyrl/News/weekly-uzex-digest-10-16-avgust>
12. <https://uzex.uz/uz-Cyrl/News/weekly-uzex-digest-10-16-avgust>
13. <https://cyberleninka.ru/article/n/nasledie-y-shumpetera-i-strategicheskie-problemy-rossii> (дата обращения: 27.01.2022).
14. Muallif tomonidan tuzilgan.
15. <https://vse-ychebniki.ru/finansovyy-analiz-uchebnik/sheremet-metodika-finansovogo-analiza/>
16. O'rmonov N.T., Ismailov A.R. “*Korporativ boshqaruv: prinsiplar, siyosat va amaliyot*”. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodmoliya, 2019. – 254 bet.
17. Elmiraev S. *Korporativ boshqaruv. O'quv qo'llanma.* – T.: Iqtisodmoliya, 2019. – 415 bet.
18. Tashxodjaev M.M., Umarxodjaeva M.G., Shermuxamedov A.K., Kayumova M.Sh. “*Korporativ madaniyat*” O'quv qo'llanma. - TDIU, 2021. -169 b.
19. Шермухамедов А. К. *Причины, воздействия на механизм управления кластерами сельского хозяйства и текстильной промышленности в состоянии пандемии covid-2019 //Актуальные научные исследования в современном мире.* – 2020. – №. 6-3. – С. 290-294. <https://uzex.uz/uz-Cyrl/News/weekly-uzex-digest-10-16-avgust>